



The study of the Iskandar theme in Uzbek literary scholarship

Khafiza ABDURAIMOVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

Alexander theme,
Alexander Romance,
Alisher Navoi,
Saddi Iskandariy,
comparative-typological
analysis,
folk epic,
classical literature.

ABSTRACT

The Study of the Alexander Theme in Uzbek Literary Scholarship is one of the intersections of Eastern and Western literary traditions and therefore requires particular scholarly attention. The sources of the Alexander figure are closely linked to the ancient Greek "Alexander Romance", the works of Persian classical poets such as Nizami Ganjavi, and various samples of oral folk literature. In Uzbek literary studies, this theme began to be systematically investigated in the second half of the 20th century.

Between 1991 and 2010, comparative-typological research expanded, where the image of Alexander was analyzed in comparison with epic heroes of folk literature and with Western literary traditions. Scholars such as F. Sulaymonova, B. Sarimsoqov, K. Imomov, H. Homidiy, and M. Jo'rayev paid particular attention to similarities and differences in epic and written portrayals of Alexander, as well as to the migration of motifs and narrative structures. Furthermore, researchers like A. Hayitmetov, R. Vohidov, and H. Eshonqulov examined the role and artistic features of Alexander's image in Alisher Navoi's epic Saddi Iskandariy within the context of Uzbek classical literature.

In recent studies (I. Ismoilov, Sh. Khudoyberdiyeva, and others), the genetic roots, folkloric interpretations, and poetic structures of Alexander's image are analyzed through modern comparative approaches. These investigations allow for a complex study of the Alexander theme in Uzbek literary scholarship from historical-literary, comparative-typological, and poetic perspectives.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp47-56>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctoral student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: hafizaxonabdumalikova@gmail.com

O'zbek adabiyotshunosligida Iskandar mavzusining o'rganilishi

Kalit so'zlar:

Iskandar mavzusi,
Alexander Romance,
Alisher Navoiy,
Saddi Iskandariy,
qiyosiy-tipologik tahlil,
xalq eposi,
mumtoz adabiyot.

ANNOTATSIYA

O'zbek adabiyotshunosligida Iskandar mavzusining o'rganilishi masalasi Sharq va G'arb adabiy an'analari kesishgan nuqtalardan biri sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Iskandar obrazining manbalari qadimgi yunon an'analari, xususan, "Alexander Romance", fors-tojik adabiyotidagi Nizomiy Ganjaviy va boshqa mumtoz shoirlar ijodi, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek adabiyotshunosligida ushbu mavzu XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o'rganila boshlandi.

1991–2010-yillarda esa qiyosiy-tipologik izlanishlar kengayib, Iskandar obrazi xalq eposidagi qahramonlar va g'arbiy adabiy an'analalar bilan solishtirildi.

F. Sulaymonova, B. Sarimsoqov, K. Imomov, H. Homidiy, M. Jo'rayev kabi olimlar Iskandar timsolining epik va yozma adabiyotdagi o'xshashlik va farqlarini aniqlash, syujet va motiv ko'chishlari jarayonini tahlil qilishga e'tibor qaratdilar. Shuningdek, A. Hayitmetov, R. Vohidov, H. Eshonqulov kabi adabiyotshunoslar Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni doirasida Iskandar obrazining o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi o'rni va badiiy xususiyatlarini ochib berganlar.

Yangi davr tadqiqotlarida (I. Ismoilov, Sh. Xudoyberdiyeva va boshqalar) Iskandar obrazining genetik ildizlari, xalqona talqinlari hamda poetik strukturasi zamonaviy komparativ tahlillari amalga oshirilmoqda. Mazkur izlanishlar o'zbek adabiyotshunosligida Iskandar mavzusini tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik va poetik jihatdan kompleks o'rganish imkonini yaratmoqda.

Изучение темы Искандера в узбекском литературоведении

Ключевые слова:

тема Искандара,
Alexander Romance,
Алишер Навои,
Садди Искандари,
сравнительно-
типологический анализ,
народный эпос,
классическая литература.

АННОТАЦИЯ

Изучение темы Искандара в узбекском литературоведении является одним из пересечений восточной и западной литературных традиций и потому требует особого научного внимания. Источники образа Искандара тесно связаны с древнегреческой традицией «Alexander Romance», с творчеством персидских классиков, таких как Низами Гянджеви, а также с образцами устного народного творчества. В узбекском литературоведении эта тема начала систематически изучаться со второй половины XX века.

В 1991–2010 гг. усилились сравнительно-типологические исследования: образ Искандара рассматривался в сопоставлении с героями народного эпоса и с западной

литературной традицией. Такие ученые, как Ф. Сулеймонова, Б. Сарымсоков, К. Имамов, Х. Хомидий, М. Джуроев уделяли особое внимание сходствам и различиям эпического и письменного образа Искандара, а также процессу миграции мотивов и сюжетных структур. Кроме того, исследователи А. Хаитметов, Р. Вахидов, Х. Эшонкулов показали место и художественные особенности образа Искандара в поэме Алишера Навои «Садди Искандари» в контексте узбекской классической литературы.

В современных исследованиях (И. Исмоилов, Ш. Худойбердиева и др.) анализируются генетические корни, народные интерпретации и поэтическая структура образа Искандара с использованием современных компаративных подходов. Эти изыскания позволяют комплексно изучать тему Искандара в узбекском литературоведении в историко-литературном, сравнительно-типологическом и поэтическом аспектах.

KIRISH

Iskandar Zulqarnayn obrazi Sharq adabiyotining eng ko'p o'rganilgan tarixiy-badiiy timsollaridan biridir. Tarixiy shaxs – Aleksandr Makedonskiy va Qur'oni Karimdagi Zulqarnayn qissasining sintezi sifatida shakllangan ushbu obraz asrlar davomida Sharq xalqlarining yozma va og'zaki adabiyotlarida turli talqinlarda namoyon bo'lgan [1, c.83-102]. O'zbek adabiyotshunosligida Iskandar mavzusi, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilgan, chunki Navoiy "Xamsa" turkumidagi beshinchi dostoni – Saddi Iskandariyda Iskandar obraziga o'zining yuksak badiiy-falsafiy talqinini bergan [2, c. 100-600]. Shu bilan birga, Iskandar mavzusi o'zbek adabiyotshunosligida faqat Navoiy ijodi bilan chegaralanib qolmagan. 1900-yillardan hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy izlanishlar uning xalq og'zaki ijodidagi talqinlarini, fors-tojik va arab adabiyoti bilan qiyosiy o'rganilishini, tarixiy manbalar bilan aloqadorligini ham qamrab oladi [3, p. 25-52].

Mazkur tadqiqot qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy va manbashunoslik metodlari sinteziga asoslanadi.

- Qiyosiy-tipologik metod – Iskandar obrazining o'zbek adabiyotshunosligidagi talqinlarini boshqa xalqlarning (fors, arab, g'arb) adabiyoti bilan qiyoslab, o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishlatildi.

- Tarixiy-adabiy metod – Iskandar mavzusining o'rganilish tarixini uch davr (sovet davri, mustaqillik davri, hozirgi davr) bo'yicha izchil tahlil qilishga yordam berdi.

- Manbashunoslik metodi – ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiya va o'quv qo'llanmalardagi Iskandar haqidagi ilmiy qarashlarni aniqlash va tahlil qilishda qo'llanildi. Bu yondashuvlar birgalikda mavzuning ilmiy spektrini keng qamrab olish imkonini berdi.

Tadqiqot quyidagi turkum manbalarni o'z ichiga oladi:

a) *ilmiy monografiyalar va risolalar*

- E.E. Bertels – Роман об Александре и его главные версии на Востоке (1948), Nizami. Tvorcheskiy put' poeta (1956).

- A. Hayitmetov – Alisher Navoiy va o'zbek adabiyoti tarixi masalalari (1970).

- R. Vohidov, H. Eshonqulov – O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (2006).

b) Dissertatsiyalar

• I. Ismoilov – Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili (PhD, 2019).

• I. Ismoilov – Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi (DsC, 2022).

d) Ilmiy maqolalar

• Sh. Xudayberdiyeva – “Iskandar podsho qissasi – Iskandar haqidagi xalqona asar” (2023).

• I. Ismoilovning Iskandar mavzusidagi barcha maqolalari.

e) Qo’shimcha kontekst manbalari

• Qur’oni Karim (Kahf surasi, 83–101-oyatlar) – Zulqarnayn haqidagi asosiy diniy manba.

• Nizomiy, Jomiy, Firdavsiy asarlari – Sharq Iskandar an’anasining asosiy poydevorlari.

Olimlarning fikrlarini tahlil qilishda quyidagi mezonlar asos bo’ldi:

1. Poetik-falsafiy talqin – Iskandar qanday axloqiy va siyosiy ideal sifatida ko’rilgan?
2. Janr pozitsiyasi – asarlar qaysi janrga mansub qilib talqin qilingan? (qahramonlik dostoni, tarixiy dostoni, falsafiy dostoni va b.)

3. Manba asoslari – Olimlar qaysi yozma va og’zaki manbalarga tayangan?

4. Qiyosiy kontekst – Iskandar qaysi obrazlar yoki tarixiy shaxslar bilan qiyoslangan? (Masalan, Nizomiy Iskandari, Jomiy Iskandari, Aleksandr Romani)

5. Ilmiy yangilik darajasi – mazkur tadqiqot o’zidan avvalgi izlanishlarga qanday qo’shimcha bergan?

Tadqiqot faqat 1900-yildan hozirgi kungacha bo’lgan o’zbek adabiyotshunosligi ishlarini qamrab oladi. Qadimgi va o’rta asr manbalari faqat ilmiy qarashlarning manba konteksti sifatida ishlatiladi.

Umumiy tendensiyalar sifatida Iskandar mavzusining o’rganilishini quyidagi bosqichlarda tahlil qilingan:

1. 1900–1950: genezis va madaniy-tarixiy tarqalish.

2. 1950–1980: Navoiy markazidagi poetik tahlil.

3. 1991–2010: qiyosiy kontekst kengayishi.

4. 2010–hozir: maxsus ilmiy tadqiqotlar va folklorshunoslik yondashuvi.

ASOSIY QISM

1900–1950-yillar: rus sharqshunosligida Iskandar obrazi:

XX asr boshlarida Iskandar mavzusi bo’yicha o’zbek tilida maxsus ilmiy tadqiqotlar mavjud bo’lmasa-da, rus sharqshunoslarining izlanishlari bu yo’nalishga katta ta’sir ko’rsatdi.

• V.V. Bartold – Iskandar haqidagi ilmiy qarashlarida uni bir vaqtning o’zida tarixiy shaxs va afsonaviy timsol sifatida baholadi. Bartold Aleksandr Makedonskiy yurishlarining Markaziy Osiyo tarixiga ta’sirini tahlil qilar ekan, o’rta asr musulmon tarixchilarining (Tabariy, Balazuriy, Ibn al-Asir) Iskandar haqidagi ma’lumotlarini tarixiy tanqid asosida tahlil qilgan [4, c. 13-34]. Eslatma sifatida ta’kidlash kerakki, Bartoldning ko’p ishlari umumiy islom, tarix metodologiyasiga oid; Iskandar bo’yicha maxsus monografiyasi yo’q. Shunga qaramay, u bergan metodik yondashuv – manbashunoslik tanqidi va musulmon tarixchilarini qiyosiy o’qish – keyingi Aleksandr/Iskandar tadqiqotlariga poydevor bo’lgan.

- E.E. Bertels – Nizomiy Ganjaviyning Iskandarnoma dostonini o'rganib, undagi Iskandar obrazining forsiy-falsafiy qirralarini ochib bergan. U Iskandarning “adil hukmdor” modeli sifatida tasvirini Sharq adabiy an'analariidagi ideal shoh konsepsiyasi bilan bog'lagan [5, c. 94-119]. Xususan, E.E. Bertels Iskandar obrazini Sharq adabiy an'analariidagi eng muhim sayyor syujetlardan biri sifatida talqin qiladi va Sharqdagi “Aleksandr romani”ning bosh versiyalarini (Firdavsiyning Shahnomasida Iskandar qismi, Nizomiyning Iskandarnomasi, keyingi xamsanavislar talqinlari) tizimli ko'rsatadi. Uning 1948-yildagi “Роман об Александре и его главные версии на Востоке” risolasi aynan shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, Iskandarning Sharqdagi ideal hukmdor va donishmand timsolida qayta talqin qilinish sabablarini (islomiy-ma'rifiy kontekst, hikmat va siyosat idealining uyg'unligi) asoslaydi.

Bertelsning Nizomiy bo'yicha yirik ishlari (mas., Nizami. Tvorcheskiy put' poeta, 1956; shuningdek, 1983-yildagi Iskandarnoma tarjimasi va sharhlari, A. Arends bilan) Iskandar timsolining ikki qiyofasini – fatih va faylasuf-hukmdorni – Sharq poetikasida qanday uyg'unlashtirilishini ta'kidlaydi. Bu, ayniqsa, Nizomiy Iskandarnomasi (“Sharafnoma”, “Iqbolnoma”) tahlilida ochiladi. (Vaqt jihatidan 1950–1980-yillar bo'lsa-da, metodik asos 1930–1940-yillardagi tadqiqotlarga borib taqaladi.)

Qisqasi, 1900–1950-yillar oralig'ida rus sharqshunosligi (eng avvalo Bertels) Iskandarni Sharq nasr-nazmidagi “ideal podshoh, hakim podshoh” modeli sifatida izohlab, uning Qur'oniylar Zulqarnayn bilan qisman qovushgan, romanik-afsonaviy qatlamga tayanadigan “Sharq Aleksandriyasi”da markaziy syujet ekani haqida nazariy-tarixiy asos yaratadi.

- O.A. Smirnova – O'rta Osiyo qo'lyozmalaridagi Iskandar haqidagi rivoyatlarni paleografik va filologik jihatdan tahlil qilgan, bu rivoyatlarning ko'p qismi xalq kitoblari janrida yozilganini qayd etgan [6, c. 20-32].

Bu olimlarning qarashlari o'zbek adabiyotshunosligida keyinchalik shakllangan Iskandar tadqiqotlari uchun nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qildi.

1950–1980-yillar: Navoiyshunoslik markazidagi izlanishlar

Sovet davrida Iskandar mavzusi asosan Navoiyshunoslik doirasida o'rganildi. Abduqodir Hayitmetovning Navoiy “Xamsa”sining yaratilish xronologiyasi va “Saddi Iskandariy” dostoni poetikasiga bag'ishlangan ishlari bu yo'nalishda muhim bosqich bo'ldi [7, c. 20-100]. Hayitmetov Iskandar obrazini “adil hukmdor” modeli sifatida talqin etib, uni Nizomiy va Jomiyning Iskandar talqinlari bilan qiyoslagan.

Shu davrda chop etilgan “O'zbek adabiyoti tarixi” va mumtoz adabiyot darsliklarida “Saddi Iskandariy” dostoniga ajratilgan bo'limlarda Iskandar obrazi tarixiy va afsonaviy qatlamlarning sintezi sifatida yoritildi [8, c. 420].

1991–2010-yillar: mavzuning kengayishi

Mustaqillikdan keyingi davrda ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytdi. Vohidov-Eshonqulov kabi olimlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalarda Iskandar obrazi nafaqat Navoiy asari, balki xamsanavislar ijodidagi umumiy syujetning bir bo'laki sifatida talqin qilindi [9, c. 55-100]. O'quv qo'llanmada Saddi Iskandariy qahramonlik dostoni sifatida liro-epik tur tarkibida sanab o'tiladi (“tarixiy” (Shayboniynoma) va qahramonlik (Saddi Iskandariy) dostonlari masnaviy shaklda). Bu yerda mualliflar Iskandar mavzusini qahramonlik epikasi doirasiga joylaydi – bu juda muhim janr belgilanishi.

- Adabiy an'ana va qiyosiy kontekst: Darslikda xamsachilik zanjiri (Nizomiy → Jomiy → Navoiy) alohida bo'limda tushuntiriladi; sayyor mavzular va adabiy aloqalar bo'yicha Sharq adabiyoti ichidagi o'zaro ta'sir mexanizmi ko'rsatiladi. Bu, Iskandar syujetining

Nizomiydan keyingi talqinlarida, jumladan, Navoiyning Saddi Iskandariyida – ijodiy “javobi” va an’anaviy syujetni yangilash xususiyatlarini tushunishga xizmat qiladi. Mualliflar bu o’rinda Navoiyning xamsachilikdagi o’rni, Nizomiy va Jomiy bilan munosabatini izohlaydi. Vohidov-Eshonqulov darsligi maxsus “Iskandar bo’limi” sifatida batafsil poetik tahlil bermaydi; biroq janr ta’rifi (qahramonlik dostoni) va xamsa an’anasidagi o’rnini aniq belgilab, Saddi Iskandariyni Sharq liro-epik hamda sayyor syujetlar tizimida talqin etadi.

Ushbu yondashuv keyingi maxsus tadqiqotlarga metodik tayanch bo’ladi.

Bu davrda Iskandar mavzusi bo’yicha qiyosiy-tipologik izlanishlar ham rivojlandi. O’zbek olimlari Iskandar obrazini G’arb adabiyotidagi “Alexander Romance” an’anasi bilan, shuningdek, xalq og’zaki ijodidagi qahramonlar bilan qiyoslab o’rgandilar [10, p. 200]. Masalan, F. Sulaymonova o’z tadqiqotida xalq og’zaki ijodidagi Iskandar obrazini “Alexander Romance” an’anasi bilan qiyoslab, syujet o’xshashliklari va obrazlarning tipologik jihatlarini tahlil qilgan [11, c. 99-110]. B. Sarimsoqov esa epos va yozma adabiyot o’rtasidagi obraz almashinuvi jarayonida Iskandar timsolining xalq qahramonlariga yaqinlashib borishini qayd etadi [12, c. 50-74]. Shuningdek, K. Imomov hamda H. Homidiy tadqiqotlarida Iskandar haqidagi xalq rivoyatlari va G’arbiy eposdagi motivlar qiyoslanib, umumiy epik struktura xususiyatlari aniqlangan [13, c. 45-52]. M. Jo’rayev esa tipologik tahlilda ayniqsa syujet ko’chishi (motivlarning bir adabiyotdan boshqasiga o’tishi) hodisasiga alohida e’tibor qaratgan [14, c. 60-74].

Bu izlanishlar orqali o’zbek olimlari xalq adabiyoti va G’arb adabiyoti o’rtasidagi tipologik bog’liqliklarni ilmiy asosda yoritishga harakat qildilar.

2010-yildan hozirgacha: maxsus tadqiqotlar davri

So’nggi o’n yilliklarda Iskandar mavzusi bo’yicha maxsus dissertatsiyalar va chuqur maqolalar yaratildi.

- Ilyos Ismoilov (PhD, 2019) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili ishida Navoiyning dostoni Nizomiy va Jomiy talqinlari bilan qiyoslab o’rganiladi. Asosiy urg’u – syujet strukturasidagi farqlar, obraz tizimi va ramziy qatlamlardagi o’ziga xosliklarga qaratilgan [15, c 30-114].

- Ilyos Ismoilov (DsC, 2022) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi ishida mavzuning manbashunoslik asoslari (Qur’on, tafsirlar, turkiy va forsiy yozma manbalar, xalq kitoblari) keng yoritiladi. Unda Gog-Magog, Zulmat, Obi hayot, Xizr va Iskandarning oynasi motivlari alohida tahlil qilinadi [16, c. 15-100].

- Shahnoza Xudayberdiyeva (2023) “Iskandar podsho” xalq kitobidagi syujet tuzilishi, rivoyatlar tizimi va folklor motivlarini tahlil qilib, xalqona talqinni ilmiy muomalaga kiritadi [17, c. 85-94].

Qiyosiy xulosa: Bu davrda mavzuning folklorshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari kuchaydi, Iskandar obrazi ko’p qatlamli (tarixiy, afsonaviy, diniy, xalqona) timsol sifatida yoritildi.

Iskandar mavzusi o’zbek adabiyotshunosligida 1900-yildan hozirgi kungacha uch asosiy davrda o’rganilgan bo’lsa-da, bu davrlarning har biri o’ziga xos ilmiy yondashuv va cheklovlarga ega. Qiyosiy-tipologik tahlil shuni ko’rsatadiki, mavzu tadqiqotida vaqt o’tishi bilan manba doirasi, tahlil chuqurligi va poetik talqin usullari sezilarli darajada o’zgarib borgan:

1. Umumiyliklar

– Ideal hukmdor konsepsiyasi – E.E. Bertels, A. Hayitmetov, I. Ismoilov kabi olimlarning barchasi Iskandar obrazida adolatli, donishmand hukmdor idealini ko'radi. Bertels bu konsepsiyani Sharq adabiy an'analardagi ideal shoh modeli bilan bog'lasa, Hayitmetov uni Navoiy falsafasining markaziy g'oyasi sifatida talqin qiladi, Ismoilov esa qiyosiy manbashunoslik orqali bu modelning tarixiy va diniy asoslarini ochib beradi [16, c. 15-100].

– An'anaviy xamsachilik konteksti – Vohidov va Eshonqulovdan tortib, Ismoilov va boshqa zamonaviy tadqiqotchilargacha barcha olimlar Saddi Iskandariyni Nizomiy–Jomiy–Navoiy ijodiy zanjirida ko'radi [9, 118-136].

– Tarixiy va afsonaviy qatlamlarning sintezi deyarli barcha tadqiqotchilar Iskandar haqidagi rivoyatlarda tarixiy Aleksandr Makedonskiy va Qur'ondagi Zulqarnayn obrazi birlashganini e'tirof etadi.

2. Farqlar

– Manbashunoslik kengligi – Bertels va Bartold asosan fors-tojik va arab yozma manbalariga tayangan; o'zbek folklor manbalari ular tadqiqotida deyarli ko'rinmaydi. Ismoilov va Xudayberdiyeva esa turkiy yozma manbalar va xalq og'zaki ijodini tadqiqotga jalb qilgan.

– Tahlil yo'nalishi

- Bertels: filologik va tarixiy-qiyosiy tahlil.
- Hayitmetov: poetik-struktur tahlil, syujet va obraz tizimi.
- Ismoilov: manbashunoslik + qiyosiy poetika + mifopoetik motivlar.
- Xudayberdiyeva: folklor va syujet arxetiplari tahlili.

– Janr ta'rifi – Vohidov va Eshonqulov darsligida Saddi Iskandariy “qahramonlik dostoni” sifatida belgilansa, Ismoilov uni liro-epik turdagi falsafiy-qahramonlik dostoni deb ta'riflaydi.

3. Yetarlicha o'rganilmagan jihatlar

– Iskandar motivlarining xalq kitoblari va yozma adabiyot o'rtasidagi o'zaro ta'siri – folklorshunoslar ayrim tahlillar qilgan bo'lsa-da, bu masala kompleks tadqiqot talab qiladi.

– Iskandar obrazining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi aks-sadosi – XX asr oxiri va XXI asr yozuvchilari asarlarida Iskandar motivlari qanday ishlatilgani hali to'liq o'rganilmagan.

– Poetik qiyosiy tahlilning kengaytirilishi – hozircha qiyosiy tahlillar, asosan, Nizomiy, Jomiy, Navoiy uchligida olib borilgan; boshqa xamsanavislar (masalan, Amir Xusrav Dehlaviy) bilan keng qiyoslash yetarli darajada amalga oshirilmagan.

– Islomiy tafsirlar bilan adabiy matnlarning o'zaro aloqasi – Qur'oni Karim va tafsir adabiyotidagi Zulqarnayn obrazining Saddi Iskandariy poetikasiga ta'siri alohida ilmiy monografiya darajasida yoritilmagan.

4. Ilmiy istiqbollar

Qiyosiy-tipologik yondashuv asosida Iskandar mavzusini o'rganish kelgusida quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

• Turkiy, forsiy, arabiy manbalar o'rtasidagi syujet va motiv almashuvining xaritasini tuzish.

• Xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy adabiyotda Iskandar timsolining evolyutsiyasini bosqichma-bosqich tasvirlash.

• Iskandar motivlarining zamonaviy madaniyat va siyosiy ideologiyadagi semantik o'rnini o'rganish.

XULOSA

1900-yildan hozirgi kunga qadar o'zbek adabiyotshunosligida Iskandar mavzusi izchil ilmiy qiziqish obyekti bo'lib kelgan va ushbu qiziqishning mazmuni, metodologik yondashuvi hamda manbashunoslik qamrovi davrlar o'tishi bilan sezilarli evolyutsiyaga uchragan. Tadqiqotlar jarayonini to'rt asosiy tarixiy-bosqichga ajratish mumkin:

1. 1900–1950-yillar: rus sharqshunosligi ta'siridagi manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy izlanishlar

Ushbu davrda Iskandar mavzusi o'zbek tilida mustaqil ilmiy tadqiqot sifatida hali shakllanmagan bo'lsa-da, rus sharqshunoslari, avvalo E.E. Bertels va V.V. Bartold kelgusidagi o'zbek adabiyotshunosligi uchun metodologik poydevor yaratdilar.

- Bertels Iskandar obrazining Sharq adabiyotidagi o'rni, Qur'oni Karimdagi Zulqarnayn qissasi va yunon-romanik manbalar bilan aloqasini tahlil qilib, ideal hukmdor va donishmand shoh konsepsiyasini aniqladi.

- Bartold musulmon tarixchilari rivoyatlarining tarixiy ishonchliligini tanqidiy o'rgandi va Iskandar haqidagi afsonalarning Markaziy Osiyo hududiga kirib kelish bosqichlarini belgiladi.

Bu davr tadqiqotlari ko'proq genezis, tarixiy manba almashuvi va mintaqaviy tarqalish masalalariga yo'naltirilgan bo'lib, o'zbek adabiyoti matnlari hali to'laqonli tahlil qilinmagan.

2. 1950–1980-yillar: Navoiyshunoslik markazidagi poetik tahlil bosqichi

Sovet davrida Iskandar mavzusi o'zbek adabiyotshunosligida asosan Navoiy ijodining tarkibiy qismi sifatida o'rganildi.

- A. Hayitmetov Saddi Iskandariyni adolatli hukmdor konsepsiyasining badiiy ifodasi sifatida tahlil qildi va uni Nizomiy hamda Jomiy talqinlari bilan qiyoslab, Navoiyning obraz yaratishdagi o'ziga xosligini ochib berdi.

- Shu davr darsliklari (masalan, O'zbek adabiyoti tarixi, 1976) asarni liro-epik tur tarkibidagi qahramonlik dostoni sifatida tasnifladilar.

Mazkur bosqich Iskandar obrazini poetik-struktur tahlil nuqtai nazaridan yoritish, syujet va obraz tizimidagi falsafiy yuklamalarni ochish bilan ahamiyatlidir. Ammo xalq og'zaki ijodi materiallari va keng qiyosiy kontekst bu davr tadqiqotlarida deyarli jalb etilmagan.

3. 1991–2010-yillar: mustaqillik davrida mavzuning qiyosiy va madaniy konteksti kengayishi

Mustaqillikdan so'ng o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy erkinlik kengaydi, bu esa mavzuga yangicha yondashuv imkonini berdi.

- R. Vohidov va H. Eshonqulov Saddi Iskandariyni liro-epik turdagi qahramonlik dostoni sifatida belgilab, xamsachilik zanjirida Iskandar syujetining o'rniga alohida e'tibor qaratdilar.

- G'arbiy "Alexander Romance" an'analari bilan qiyosiy tahlil yo'nalishi paydo bo'ldi, bu esa Iskandar syujetini xalqaro madaniy kontekstda ko'rish imkonini berdi.

Bu bosqichda Iskandar mavzusi faqat Navoiy asari bilan chegaralanmay, boshqa madaniy an'analari bilan qiyoslash yo'nalishida ham o'rganila boshladi.

4. 2010-yildan hozirgacha: maxsus dissertatsiyalar, folklorshunoslik va manbashunoslik kengayishi.

So'nggi o'n yilliklarda Iskandar mavzusi bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

• Ilyos Ismoilov (PhD, 2019) Saddi Iskandariyni Nizomiy va Jomiy asarlari bilan qiyosiy poetik tahlil qildi.

• I. Ismoilov (DsC, 2022) mavzuni genezis (manba va rivoyatlar kelib chiqishi), poetika va mifopoetik motivlar (Gog-Magog, Zulmat, Obi hayot, Xizr, Iskandarning oynasi) asosida keng yoritdi. Bu ishda Qur’oni Karim, tafsirlar, turkiy yozma yodgorliklar va xalq kitoblari o’zaro aloqada tahlil qilindi.

• Sh. Xudayberdiyeva (2023) “Iskandar podsho” xalq kitobi asosida Iskandar obrazining xalqona talqinini folklorshunoslik metodlari bilan ilmiy muomalaga kiritdi.

Mazkur bosqich Iskandar mavzusini ko’p qatlamli ilmiy yondashuv bilan o’rganish davri bo’lib, unda tarixiy, afsonaviy, diniy va xalqona qirralar birgalikda tahlil qilinmoqda.

Ilmiy umumlashmalar

1. Ideal hukmdor konsepsiyasi Iskandar obrazining barcha davrlardagi talqinlarida markaziy g’oya sifatida saqlanib qolgan.

2. Manbashunoslik kengayishi – dastlab fors-tojik va arab yozma manbalari bilan cheklangan tadqiqotlar bugungi kunda turkiy yozma yodgorliklar, xalq og’zaki ijodi va xalq kitoblarini ham qamrab olmoqda.

3. Qiyosiy-tipologik tahlil – Iskandar syujeti xalqaro adabiy-madaniy almashinuv jarayonining muhim bo’g’ini sifatida ko’rilmoqda.

Hozircha yetarlicha o’rganilmagan yo’nalishlar:

• Iskandar motivlarining zamonaviy o’zbek adabiyotidagi ishlatilishi.

• Xalq og’zaki ijodi va yozma mumtoz adabiyot talqinlari o’rtasidagi uzviy aloqalar.

• Qur’oni Karim tafsirlari va adabiy matnlar o’rtasidagi semantik bog’lanishlar.

• Iskandar syujeti va zamonaviy sotsiomadaniy jarayonlar o’rtasidagi munosabat.

Kelgusida Iskandar mavzusini o’rganish quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

1. Manba almashuvi xaritasi – turkiy, forsiy va arabiy adabiy an’analar o’rtasida syujet va motiv almashuvini tizimli ko’rsatish.

2. Zamonaviy korpus yaratish – Iskandar motivlarini o’z ichiga olgan o’zbek, fors va arab matnlarining raqamli korpusini tuzish.

3. Tarmoqlararo yondashuv – adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, dinshunoslik va folklorshunoslikni birlashtirgan kompleks tadqiqotlar.

Yakuniy xulosa shuki, Iskandar mavzusining o’zbek adabiyotshunosligidagi o’rganilish tarixi – bu bir obrazning badiiy talqinidan ham ko’proq narsa: bu ilmiy tafakkurimizning tarixiy, diniy va madaniy qatlamlar bilan bog’liq holda qanday rivojlanganining yaqqol ko’rinishidir. Har bir davr o’z davrining ilmiy paradigmasini, manba imkoniyatlarini va metodologik yondashuvlarini aks ettiradi. Shu bois, bu mavzu bo’yicha mavjud ilmiy meros kelgusida yanada chuqurroq va kengroq qamrovli tadqiqotlarga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – 600 с.

2. Навоий, Алишер. Садди Искандарий / МАТ. 20 т. Т. 11. – Тошкент: Фан, 1987. 727 б.

3. Golden, P. B. Central Asia in World History. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 184 p.

4. Бартольд, В. В. Очерк истории семейских отношений у мусульман. – Петроград, 1918. – 56 с.

5. Бертельс, Е. Э. Низами и его современники. – Москва: Изд-во АН СССР, 1940. – 312 с.
6. Смирнова, О. А. Рукописи среднеазиатских народных книг. – Москва: Изд-во восточной литературы, 1959. – 198 с.
7. Ҳайитметов, А. Алишер Навоий ва ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1970. – 250 б.
8. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 420 б.
9. Воҳидов, Р.; Эшонқулов, Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: Университет, 2005. – 368 б.
10. Meisami, J. S. Medieval Persian Historiography. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 199
11. Сулаймонова, Ф. Ўзбек халқ дostonларида тарихий шахс образи. – Тошкент: Фан, 1998. – 215 б.
12. Саримсоқов, Б. Ўзбек халқ эпосида тарихий образлар эволюцияси. – Тошкент: Ма’навият, 2001. – 184 б.
13. Имомов, К.; Хомидий, Ҳ. Шарқ адабиёти ва халқ оғзаки ижодида Искандар образи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – №4. – Б. 45-52.
14. Жўраев, М. Қиёсий адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2007. – 276 б.
15. Ismoilov, I. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 160 b.
16. Ismoilov, I. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi: DSc dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 280 b.
17. Худойбердиева, Ш. Искандар подшо қиссаси — Искандар ҳақидаги халқона асар // Фольклоршунослик тўплами. – Тошкент, 2023. – Б. 85-94.
18. Бертельс, Е. Э. Роман об Александре и его главные версии на Востоке. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948. – 280 с.